

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**GIYOSOV ULUG‘BEK ESHPULATOVICH**

**VIRTUAL UNIVERSITET TASHKIL QILISHDA 3D MODELLARINI  
YARATISH VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich**

Virtual universitet tashkil qilishda 3D modellarini yaratish va dasturiy vositasini ishlab chiqish..... 5

**Гиёсов Улугбек Эшпулатович**

Создание 3D моделей и разработка программного инструмента для создания виртуального университета..... 21

**Giyosov Ulugbek Eshpulatovich**

Creating 3D models and developing a software tool for creating a virtual university..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 43

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**GIYOSOV ULUG‘BEK ESHPULATOVICH**

**VIRTUAL UNIVERSITET TASHKIL QILISHDA 3D MODELLARINI**  
**YARATISH VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining  
matematik va dasturiy ta’minoti

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T3082 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Kabulov Anvar Vasilovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Samandarov Batirbek Satimovich**  
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «17» mart soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: [iktuit@tuit.uz](mailto:iktuit@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (269 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «01» mart kuni tarqatildi.  
(2023-yil «10» fevral dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.M.Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**N.O.Raximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

**X.N.Zaynidinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda rivojlanib borayotgan virtual reallik texnologiyalari va muhitlari jamiyatning turli sohalari bilan o'zaro innovatsion texnik integratsiyalanishi, jumladan sanoat, tibbiyot, turizm, harbiy sohada, kino va televideniya, qolaversa ta'lim sohasida ham qo'llash muhim masalalardan biridir. Shu jihatdan ma'lum sohalarda ta'lim oluvchilarning bilim faolligini oshirish, 3D texnologiyalar va virtual reallik muhitlaridan kengroq foydalanish, an'anaviy o'qitish muhitidan virtual 3D o'qitish muhitiga o'tish usul va vositalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur sohada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Norvegiya, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Korea, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va boshqa davlatlarda uch o'lchovli virtual universitet platformalarini yaratish, virtual universitetni tashkil qilishda uch o'lchovli modellari hamda virtual uch o'lchovli obyektlarni eksteryer modellarini vizuallashtirish va dasturiy vositalarini ishlab chiqishning nazariy hamda amaliy masalalarini yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda virtual universitetning uch o'lchovli muhitini tashkil qilgan Oliy ta'lim muassasa (OTM)larida virtual ishtirokchilar soni bir yilga bir necha millionlarni tashkil etmoqda. Buning sababi shuki, ta'lim muassasalarida an'anaviy usulda bilim olishga nisbatan masofadan turib virtual bilim olish foydalanuvchilar uchun ham qulay, ham arzon, eng asosiysi foydalanuvchilar o'zlariga ma'qul bo'ladigan vaqtlarda virtual simulyatsiya va virtual trenajyor mashg'ulotlar yordamida yagona virtual reallik dasturiy vositasida bilim olishlariga imkon beradi. Zamonaviy ta'lim tizimi talablariga javob beradigan ta'lim sohasida virtual reallik (VR) elementlarini qo'llash instrumental vositalari, texnologiyalari, virtual muhitni tashkil qilishda ma'lumotlar bazasi bo'yicha munosabatlarining relyatsion algebra ifodalarini qurish usullari, uch o'lchovli virtual universitet dasturiy vositalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizning ta'lim sohasi hududlarida virtual reallik muhitlarini joriy qilish, uch o'lchovli va virtual elektron formatdagi o'quv kontentlarini namoyish etish, tajriba va bilim almashish uchun raqamli dasturiy vositasini takomillashtirish, OTMlarining milliy virtual muhitini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston–2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida, jumladan «... iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va «bulutli» hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish», «...axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish», «...raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish...» kabi bir qator vazifalar belgilangan. Shunga ko'ra, hozirgi kunda texnika va texnologiya jadal rivojlangani sari virtual olamdan foydalanish

juda ko'pchilikda katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Pandemiya sababli onlayn o'qitishda o'quv binosidan tashqari sharoitda ta'limiy maqsadlarda VR vositalarini qo'llab o'qitishga bo'lgan talab oshdi va ushbu tipdagi virtual muhitlarni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-son Farmonidagi «AKT sohasida milliy mahsulot yaratish tizimini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish...», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi 172-son «Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida O'zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi ma'lum bir ma'noda xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Virtual olamda virtual elektron resurslardan foydalanish, 3D texnologiyalarga asoslangan virtual elektron formatdagi materiallarni ta'lim jarayonidagi o'rni, qiymati, yetarlilik darajasi, ta'lim tizimida virtual reallik elementlarini qo'llash, ta'limda VR muhitlarni qo'llash tizimlari (Second Life, vAcademia, Virbela va boshqalar), virtual muhitlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha xorijiy olimlardan S. Hale, R.Ziatdinov, M. Fominykh, M.LaValle, F. Ramos, J. Seokhee, G. Henke, I.T. Sheiko, Bin Chen, C.Levi, D.Yen, M. Melzer, O.Yoshihiro, J. Robert, M.Morozov, A.Gerasimov, P.Forland, A. V. Mezhenin va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

Respublikamizda ta'lim tizimida virtual reallik elementlarini qo'llash, virtual muhit uchun obyektlarning 3D modellarini vizuallashtirishni usul va algoritmlarini qo'llash, virtual universitet o'quv jarayonini avtomatlashtirishning dasturiy axborot tizimi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, asosan T.F. Bekmuratov, A.X.Nishanov, B.B.Mo'minov, N.O.Raximov, R.D.Aloev, U.R.Xamdamov, F.M.Nuraliev, M.Artikova, V.S. Hamidov va boshqalar o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda virtual olamdagi dolzarb muammolardan biri foydalanuvchilar virtual muhitda o'quv jarayonini tashkil qilish 3D modellarini yaratish va dasturiy vositasini ishlab chiqish, internet orqali virtual muhitlarga onlayn ishtirok etish, foydalanuvchilar bir-biri bilan virtual muhitda ma'lumot almashishi, foydalanuvchilar o'rtasida virtual muhitda onlayn sinxronizatsiya qilish hozirgi kunda yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F3-2019081212 «O'zbek 3D naqshlarida murakkab eksteryer, interyer tuzilishlarni bayon etishni geometrik modellashtirish texnologiyasini ishlab chiqarish» (2020-2021), IL-47-21071198 «3D texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari bo'yicha milliy virtual universitet yaratish» (2022-2023) innovatsion loyihalari doirasida olib borildi.

**Tadqiqotning maqsadi** virtual universitet tashkil qilishda eksteryer va interyer obyektlar 3D modellarini tasvirlash va vizuallashtirishni shakllantiruvchi algoritmlari va virtual universitet tashkil qilishda 3D modellarini yaratish dasturiy vositasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

virtual universitet muhitida obyektlarning 3D modellarini loyihalashning funksional IDEF modeli va algoritmini ishlab chiqish;

yaratilgan 3D modellarini materiallar, teksturalar, poligonlari va hajmini, fayl formatini virtual universitet muhiti qabul qiladigan shaklga keltirish;

virtual borliqda universitet muhiti uchun uch o'lchovli obyekt ma'lumotlarini eksportini ta'minlovchi qo'shimcha dasturiy modulini ishlab chiqish;

virtual muhitlar uchun obyektlarning 2D/3D modellarini xususan eksteryer va interyer obyektlarning 3D modellarni loyihalash, uch o'lchovli obyektlarning modellarini grafik ma'lumotlar bazasining strukturasi ishlab chiqish;

vAcademia muhiti uchun milliy obyektlarning 3D modellari asosida virtual ta'lim muhitini dasturiy ta'minotini mantiqiy funksional tuzilmasini loyihalashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida zamonaviy virtual muhitlarida virtual universitet tashkil qilishda 3D modellarini yaratish va dasturiy vositasini ishlab chiqish jarayonlari qaralgan.

**Tadqiqotning predmeti** virtual muhitlarda obyektlarning 3D modellarini geometrik modellashtirish, vizuallashtirishning usullari hamda dasturiy vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida virtual uch o'lchovli obyektlarni interyer va eksteryer modellari orqali vizuallashtirish qoidalari, vizuallashtirish nazariyasi, relyatsion algebra ifodalari, diskret matematika, virtual uch o'lchovli obyektlarni eksteryer modellarini vizuallashtirish usullari, virtual reallik algoritmlarini ta'limda qo'llash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

virtual muhitga BMF (Basic Model Format) formati asosida 3D modellarini eksport qilish dasturiy vosita plagini ishlab chiqilgan;

virtual universitet muhitida eksteryer va interyer milliy obyektlarning 3D modellari asosida grafik ma'lumotlar bazasini loyihalashning funksional IDEF1x modeli ishlab chiqilgan;

virtual muhitida ikki va uch o'lchovli primitivlarni tasvirlash usullari asosida virtual ko'rgazma va universitet 2D/3D vizuallashtirish modellari ishlab chiqilgan;

vAcademia tizimida milliy obyektlar 3D modellari asosida virtual muhitini loyihalash dasturiy vositasining mantiqiy funksional tuzilmasi loyihalashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: vizual jarayonlarni funksional bog‘liqlik ER (Entity Relationship) munosabati modellari, grafik ma’lumotlar strukturasi relyatsion munosabatni tashkil qiluvchi modellari, virtual universitet uchun virtual muhitlarni yaratishning funksional tuzilmasi va dasturiy vositasi asosida ta’lim muassasalarida o‘qitishni zamonaviy virtual 3D muhitlarda bilim oluvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan va bu orqali zamonaviy milliy landshaft dizayn asosida loyihalashtirilgan virtual uch o‘lchovli muhitda o‘qitish jarayoniga ko‘maklashuvchi o‘zbek tilidagi “vacademia.uz” dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** virtual universitet uchun virtual muhitlarni yaratishda 3D modellarini loyihalashtirish dasturiy vositasi, sinovdan o‘tkazish, joriy etish, statistik ma’lumotlarning solishtirish natijalari, matematik ta’minotining to‘g‘ri qo‘llanilishi va tajribaviy tadqiqotlardagi ijobiy natijalarga mutanosibli bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati virtual universitet uchun virtual muhitlarni yaratishning funksional tuzilmasi hamda milliy obyektlarning 3D modellari asosida grafik ma’lumotlar bazasini loyihalashning funksional IDEF1x modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning ER diagrammasi, virtual universitet muhitini tashkil qilish 3D modellarini yaratish va vizuallashtirilgan uch o‘lchovli modellarni maxsus plugin yordamida virtual olam muhitiga joylashtirish uchun dasturiy vosita plagini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Virtual universitet muhitini tashkil qilish va 3D modellarini yaratish masalasini yechish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy natijalarga asoslanib:

virtual borliq muhitida uch o‘lchovli primitivlar asosida virtual ko‘rgazma va milliy universitet 2D/3D vizuallashtirish modellari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatiga «II Toshkent xalqaro kitob ko‘rgazma-yarmarkasi-2020» virtual muhitda o‘tkazish maqsadida tadbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 14.11.2022 yil №11-4830-son ma’lumotnomasi). Natijada xalqaro darajadagi virtual ko‘rgazmalar o‘tkazishda qulay va samaralidir, virtual muhitdagi foydalanuvchilarni mashg‘ulotga qiziquvchanlik qobiliyatini oshirishga imkon bergan;

virtual borliq ta’lim muhitida eksteryer va interyer obyektlarning 3D modellari asosida grafik ma’lumotlar bazasini axborot IDEF1x modeli uchun dasturiy vositani ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish algoritmi va matematik ta’minoti «UCHDAVR» MCHJ ta’lim sohasi uchun virtual muhitlarni yaratish kompaniyasi ishlari jarayoniga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar

agentligining 14.11.2022 yil №11-4830-son ma'lumotnomasi). Natijada ish unumdorligini 10-13% ga oshirishga hamda uch o'lchovli obyektini fazoda tasvirlash tezligi 4 martagacha oshirish imkonini bergan;

vAcademia tizimida milliy obyektlar 3D modellari asosida virtual muhitini loyihalash dasturiy vositasining tarkibiy tuzilmasi takomillashtirilgan milliy virtual muhiti Rossiya Federatsiyasining «Виртуальные пространства» МСНJga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 14.11.2022 yil №11-4830-son ma'lumotnomasi). Natijada bir xil qiymat darajasidagi Intel protsessorli va Nvidia, ATI grafik adapterlariga ega bo'lgan 20 ta apparat konfiguratsiyasidagi tizimlarda har bir tasvir o'lchami uchun 10 martadan ishga tushirilib, so'ngra oqim protsessorlaridan (OP) foydalanishda erishilgan yaxshilanish OPning eng yuqori ko'rsatkichlarining markaziy protsessorning (MP) eng yuqori ko'rsatkichlariga nisbati 2 martadan ko'p bo'lmagan farq qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shulardan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan, hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Zamonaviy virtual muhitlar tahlili va ularni virtual ta'lim tizimida qo'llash» deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iboratdir. Ushbu bob virtual muhitning asosiy tushunchalari, virtual ta'lim muhitlarini qo'llash usullarining hozirgi holati va ularni qo'llanilish sohalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, virtual muhitning paydo bo'lish tarixi, virtual muhitlarning ta'riflari, virtual muhitlarga aloqador bo'lgan umumiy tushunchalar bayon etiladi. Ikkinchi paragrafda virtual muhitlarda o'quv jarayonini tashkil qilish metodologiyalarini qo'llash talablari va ishlab chiqish uslublari, ta'lim jarayonida foydalaniladigan virtual universitet muhitlari, ularning imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari virtual muhitning asosiy tushunchalari, virtual ta'lim muhitlarini

qo'llash usullarining hozirgi holati va ularni qo'llanilish sohalarini virtual muhitning paydo bo'lish bosqichlari afzalligi va kamchiligiga ko'ra tahlil qilingan. Uchinchi paragrafda virtual reallikda virtual ta'lim 3D muhitlarni qurish masalasini qo'yilishi hamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Virtual muhitni qurishning uch o'lchovli modellarini ishlab chiqish jarayonlari**» deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan iboratdir. Ushbu bob obyektlarning 3D modellarini yaratishda eng ko'p qo'llaniladigan ikkita yondashuv mavjudir. Bular poligonal modellashtirish va splayn modellashtirishdir. Ikkala variant ham yuqori sifatli 3D modellarni yaratishga imkon beradi. Bular poligonal modellashtirish va splayn modellashtirishdir. Uch o'lchovli obyektlarini splayn funksiyasi usuli yordamida geometrik modellarini ishlab chiqish usulidan foydalanadigan bo'lsak uch o'lchovli obyektning kompyuterda namoyish etish vaqti sezilarli darajada qisqardi va vaqtinchalik xotirada modelni tasvirlash uchun xotira hajmi tejalishi kabi ishlar bayon etilgan.

2.1- paragrafda fazoviy shakllarni tasvirlash va vizuallashtirishni o'z ichiga oladi, VR muhitida foydalanish uchun obyektlarning 3D modellarini ishlab chiqish texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1-rasm).



**1-rasm. Virtual muhitlar uchun obyektlarning 3D modellarini ishlab chiqish texnologiyasining tuzilishi**

2.2-paragrafda relyatsion modelda relyatsion algebra amallaridan foydalanilgan holda amallar bajarish, relyatsion algebra munosabatlardan ketma-ket foydalanish va virtual muhitni tashkil qilishda ma'lumotlar bazasi bo'yicha munosabatlarini qurish usullarini ishlab chiqish ko'rsatib o'tilgan.

Virtual muhitni tashkil qilishda ma'lumotlar bazasi bo'yicha munosabatlar ustida an'anaviy amallar birlashma (union  $\cup$ ), kesishma (intersection  $\cap$ ), ayirma (Set difference  $-$ ), dekart ko'paytirish (Cartesian product  $\times$ ). Ikkinchi guruh esa maxsus relyatsion amallardan tanlash yoki cheklov (selection  $\sigma$ ), proyeksiya lash (projection  $\Pi$ ) bajariluvchi ketma-ketlik qurish algoritmlari ishlab chiqildi.

*Proyeksiyalash (Vertikal qism to'plam - projection  $\Pi$ )*. Ushbu amalda T - atributlar to'plami,  $r[T]$  - T atributga mos keluvchi P munosabatning kortejlari bo'lsa, u holda ushbu P munosabatni T ga proyeksiyalash quyidagicha bo'ladi (1).

$$P[T] = \{r[T] \mid r \in P\} \quad (1)$$

Proyeksiyalashda berilgan munosabatdagi ba'zi kortejlarni chiqarib tashlash orqali, qolgan kortejlardan yangi munosabat hosil qilinadi. P munosabatga proyeksiyalash tatbiq etilganda, ushbu munosabattan ba'zi bir komponentalar olib tashlanib, qolganlari qaytadan tartiblanadi. Proyeksiyalash munosabattan kerakli ustunlarni chiqarish amali hisoblanadi (1-3-jadvallar).

### 1-jadval.

*objects\_map (Obyektlar to'plami)*

type	res	Name	level
2	squb\squb_inoplanet_gump\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_gump	2
0	squb\squb_inoplanet_gump3\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_gump3	7
0	squb\squb_inoplanet_gump3\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_gump2	0
2	squb\squb_inoplanet_gump\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_lol01	4

### 2-jadval.

*atributlarni proyeksiyalash (SELECT DISTINCT type, res FROM objects\_map)*

type	res	name	level
2	squb\squb_inoplanet_gump\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_gump	2
0	squb\squb_inoplanet_gump3\mesh.bmf.zip;25000;0;	squb_inoplanet_gump3	7


2.3-paragrafda R-funksiya (RFM)dan foydalangan holda uch o'lchovli obyektzni vizuallashtirishda soddalashtirilgan holati, umumiy 3D obyekt geometrik primitivlarni konstruktiv kombinatsiyalari usullaridan foydalanilgan.

Bunda (1) birlashtirilgan umumiy formula:

$$\omega_{R1} = \omega_{1,3} \wedge_0 \overline{\omega_{4,6}} \wedge_0 (\overline{\omega_{7,10}}) \vee_0 (\omega_{11,12}) \quad (1)$$

*Bunda:*

$$\begin{aligned}
 f_1 &= a^2 - x^2 \geq 0, f_2 = b^2 - y^2 \geq 0, f_3 = c^2 - z^2 \geq 0. \\
 \omega_{1,3} &= f_1 \wedge_0 f_2 \wedge_0 f_3; \\
 f_4 &= (a - n)^2 - x^2 \geq 0, f_5 = (b - n)^2 - y^2 \geq 0, f_6 = (c - n)^2 - z^2 \geq 0. \\
 \omega_{4,6} &= f_4 \wedge_0 f_5 \wedge_0 f_6; \\
 f_7 &= \left(\frac{a}{3}\right)^2 - x^2 \geq 0, f_8 = \left(\frac{b}{2}\right)^2 - \left(y - \frac{b}{4}\right)^2 \geq 0, \\
 f_9 &= n^2 - (z - (c - n))^2 - y^2 - x^2 \geq 0 \\
 \omega_{7,10} &= f_7 \wedge_0 f_8 \wedge_0 f_9 \wedge_0 f_{10}; \\
 f_{11} &= R^2 - x^2 - (y + R)^2 - z^2, f_{12} = (R - n)^2 - x^2 - (y + R)^2 - z^2, \\
 \omega_{11,12} &= f_{11} \wedge_0 \overline{(f_{12})}
 \end{aligned}$$




## 2-rasm. R-funksiya (RFM) asosida sodda uch o'lovli obyektни qurish

Dastlab V.L.Rvachevning R-funksiya usulidan foydalanib murakkab uch o'lovli obyektни vizuallashtirish tenglamasi ishlab chiqildi:

$$\begin{aligned}
 \omega_{R2} &= (\omega_1 \wedge_0 \overline{(\omega_{10})}) \wedge_0 (\overline{\omega_5 \wedge_0 \omega_{12}}) \vee_0 \omega_4 \vee_0 \omega_2 \vee_0 \omega_3 \vee_0 \omega_6 \vee_0 \omega_{16} \vee_0 \omega_7 \vee_0, \\
 &\omega_{20} \wedge \overline{\omega_8 \vee_0 \omega_9} \wedge \overline{\omega_{11} \vee_0 \omega_{12}}
 \end{aligned} \tag{2}$$

Bunda (2) formulada umumiy 3D obyekt quyidagi primitivlarni konstruktiv kombinatsiyalaridan iborat: 1. To'g'ri burchakli parallelepiped 2. Silindr 3. Ellips.



## 3-rasm. R-funksiya (RFM)dan foydalangan holda murakkab uch o'lovli obyektни vizuallashtirishda soddalashtirilmagan holati

Yuqoridagi tahlil va natijalar asosida V.L.Rvachevning R-funksiya (RFM) usulidan foydalanib murakkab uch o'lovli obyektни (3) vizuallashtirishda soddalashtirilgan tenglamasi ishlab chiqildi:

$$\omega_{RU} = \omega_{Ra} \vee_0 \omega_{Rhl} \vee_0 \omega_{Rhr} \vee_0 \omega_{Rml} \vee_0 \omega_{Rmr} \tag{3}$$

Bunda:

$$f_1 = (a - w)^2 - (x - a_1)^2 \geq 0, \quad f_2 \equiv (b - w)^2 - (y - b_1)^2 \geq 0,$$

$$f_3 = (c - w)^2 - (z - c_1)^2 \geq 0.$$

$$\omega_k = f_1 \wedge_0 f_2 \wedge_0 f_3$$

$$\omega_{ys} = f_4 \wedge_0 f_5 \wedge_0 f_6 \wedge_0 f_7$$

$$f_4 = (R - w)^2 - (x - a)^2 - (z - c)^2 \geq 0, \quad f_5 \equiv (b - y) \geq 0,$$


$$f_6 = -z + c_1 \geq 0,$$

$$f_7 = y + b_1 \geq 0, \quad f_8 \equiv (x - a)^2 + (y - b)^2 + (z - c)^2 - R^2 \leq 0,$$

$$f_9 = -z + c_1 \geq 0, \quad f_{10} \equiv y - b \geq 0,$$

$$f_{11} = (x - a)^2 + (y - b)^2 + (z - c)^2 - (R - w)^2 \leq 0,$$

$$\omega_{ysh} = f_8 \wedge_0 f_9 \wedge_0 f_{10} \wedge_0 f_{11}$$




#### **4-rasm. R-funksiya (RFM) foydalangan holda murakkab uch o‘lchovli obyektни vizuallashtirishda soddalashtirilgan holati**

Bunda umumiy (3) 3D obyekt quyidagi primitivlarni konstruktiv kombinatsiyalaridan iborat: 1. To‘g‘ri burchakli parallelepiped 2. Silindr, 3.Sfera. Yuqoridagi 2-rasm va 3-rasm modellarni koordinatasiz loyihalashtirganimizda modelni chizish vaqti ortadi va vaqtinchalik xotira hajmi ortadi. Tadqiqotni amalga oshirishdan olingan asosiy natijalar asosida uch o‘lchovli modelni chizish uchun koordinatlarni alohida faylga saqlab so‘ngra uni chizish ancha samarali bo‘ladi (4-rasm). R-funksiya usuli (RFM) yordamida chizilgan 3D obyektlar Core i3 va undan yuqori konfiguratsiyali kompyuterlarning parametrlariga bog‘liqdir. Buning natijasida modellarni loyihalashtirishda uch o‘lchovli obyektни kompyuterda namoyish etish vaqti sezilarli darajada qisqardi va vaqtinchalik xotirada modelni tasvirlash uchun xotira hajmi tejaldi.


Dissertatsiyaning «**Virtual 3D universitet muhitini funksional tuzilmalari va unga uch o‘lchovli obyektlarni integratsiyalash usullari**» deb nomlangan uchinchi bobi uchta paragrafdan iboratdir. Ushbu bobda SQL skriptlar va ularning atributlari, virtual uch o‘lchovli 3D grafik dasturiy ta‘minot uchun konverter dasturiy instrument yordamchi modulini sozlash usullari, vizual jarayonlarni funksional bog‘liqlik ER munosabati modellari, ma‘lumotlar bazasining jadvallari va uch o‘lchovli obyektlarni eksport qilish amalga oshirilgan.

3.1-paragrafda dasturiy vosita tuzilmasi va modullari, mijoz-server arxitekturasi, virtual uch o'lchovli universitetning umumiy server arxitekturasi, VRning ssenariy konsepsiyasi darajalari, vAcademia dasturiy vositasining umumiy arxitekturasi batafsil o'rganilgan (5-6 rasmlar).

- vAcademia dasturi – virtual olamnini ko'rsatadigan va barcha funksiyalarni ta'minlaydigan mijoz dasturi;
- vAcademia serverlari – tarmoq o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlaydigan va bir nechta serverlardan iborat bo'lgan kengaytiriladigan tizim, jumladan, autentifikatsiya server, resurslarni boshqarish serverlari, sinxronlashtirish serverlari, VoIP serverlari va xizmatchi serveri;
- Kirish nazorati ro'yxati (Access Control List) – virtual seanslarni rejalashtirish va ularga kirish kabi resurslar uchun foydalanuvchi ruxsatlarini boshqaradigan tizim;
- Virtual olam kontent ombori – 3D dunyo ma'lumotlari (geometriya va teksturalar) va foydalanuvchi obyektlari uchun saqlash tizimi;
- Virtkast ombori – 3D yozuvlar uchun saqlash tizimi.




5-rasm. vAcademia dasturiy vositasining umumiy arxitekturasi



6-rasm. vAcademia.uz milliy virtual 3D universitet mantiqiy funksional tuzilmasi

3.2-paragrafda virtual muhit uchun obyektning uch o'lchovli modellarini serverga soddalashtirilgan va oson yuklanadigan BMF formatga o'tkazish uchun qo'shimcha dasturiy instrument ishlab chiqish. Vizuallashtiruvchi dasturiy vosita (DV)ga konverter yordamchi dasturiy instrumentini integratsiyasi bayon etilgan (7-rasm).



**7-rasm. Foydalanuvchi interfeysi uchun 3D modelni yuklash sxemasi**


Ushbu 3D model konvertori – bu alohida dastur bo‘lib, Assimp kutubxonasi yordamida ishlaydi. Ushbu kutubxona 3D modelni BMF formatiga o‘tkazish va teksturalardagi rasm uchun PNG, JPEG formatlarini oqilona qabul qilishga ruxsat beradi (1024x1024 pikseldan oshmasligi kerak). Ushbu format vizuallashtirish, VR/AR uchun sodda va tez yuklanuvchi 3D model formatidir.

3.3-paragrafda uch o‘lchovli obyekt xususiyatlarini ma‘lumotlar bazasining jadvallari bilan bog‘lash skriptlarini shakillantirish, grafik ma‘lumotlar bazasi strukturasi, vacademia.uz dasturiy vositasi grafik ma‘lumotlar bazasining virtual olam muhitida ro‘yxatdan o‘tish va kurslarga qatnashish eksteryer va interyer obyektlarning 3D modellari ER diagrammasi relyatsion ma‘lumotlar bazasi yordamida joylashtirish ko‘rsatilgan.

HeidiSQL ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi asosida veb server bilan birgalikda dizayn yaratish uchun professional 3D modellashtirish va vizuallashtirish AutoDesk 3D Max dasturi 2009 muhitida 3D modellarni chizib olinadi. Autoexport to VirtualUniver server plagini 3D Maxda chizilgan uch o‘lchovli obyektlarni VR muhiti uchun tayyorlab serverga joylashtirish uchun almashtirib beradi. Har bir saqlangan papkani ichida uch o‘lchovli obyektning XML fayllari mavjuddir. Tizim XML fayllarini avtomatik tekshirib bazaga ham qo‘shib qo‘yadi.


Yangi joylashuv manzil (lokatsiya)ini yaratilishi.C:\VuServers\ServerBins\islands.xml faylida joylashuv joylarining koordinatalari mavjud. Endi joylashuv manzili uchun quyidagi koordinatalar belgilandi:

```
<joylashuv manzili nomi ="Joylashuv manzili" type="1" tasvir="uz.png"
nuqtaAX="106000" nuqtaAY ="-34900" nuqtaBX ="124900" nuqtaBY ="-53800"
posAX="106621" holAY="-35521" holBX="124279" holBY="-53179"
rasmAX="9" rasmAY="9" rasmBX="265" rasmBY="265"/> (8-11-rasmlar).
```




**8-rasm. 3D modelning obyektleri soni va ko‘rinishi**

8-rasmda uch o‘lchovli obyektning grafik DVdagi umumiy ma’lumotlari tasvirlangan. Uning poligonlari soni 48478 ta va nuqtalar soni 24321 tani tashkil qiladi.



**9-rasm. Belgilangan obyektarning 3D modellarini Autoexport to VirtualUniver server plagini orqali serverga ekport qilish oynasi**

Biz yaratgan obyektlar foydalanuchi lokal kompyuterning F:\WebServers5\home\virtuniver.loc\www\vu\root\files\vu2008-02-20\geometry\squb manziliga saqlanadi. \_ squb papkasi ichida har bir model uchun alohida papkaosti papka mavjud.




**10-rasm. Avtomatik eksport qilish jarayoni yakunlangandan so‘ng bitta obyektning arxiv papkasi ichidagi fayllar soni**




**11-rasm. Virtual borliq ta’lim muhitida eksteryer va interyer obyektlarning 3D modellari**


Tajribaviy tadqiqotlar virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning turli rollarda aks etishi keltirib o‘tildi. Funktsional jarayonlarning axborot IDEF modellari, virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning ER diagrammasi yoritildi (12-14-rasmlar).



**12-rasm. Veb-interfeysida shakllantirilgan ma’lumotlarning IDEF0 axborot modeli**




13-rasm. “vacademia” klient dasturiy vositasining IDEF0 axborot modeli




14-rasm. Virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning ER diagrammasi

Amaliy masalalarni yechish taklif etilgan dasturiy vosita bir xil qiymat darajasidagi Intel protsessorli va Nvidia, ATI grafik adapterlariga ega bo'lgan 20 ta apparat konfiguratsiyasidagi tizimlarda ishga tushirishda olingan natijalarni taqdim etildi. Buning natijasida har bir apparat konfiguratsiyasida har bir tasvir o'lchami uchun 10 martadan ishga tushirildi. Har xil o'lchamdagi tasvirlar uchun markaziy protsessor (MP) hamda oqim protsessor (OP)larda to'g'ridan-to'g'ri va

teskari DWT (diskret to‘lqinli almashtirishni qo‘llaganda) tasvirlarni vaqtinchalik xotirada yuklanishi vaqti o‘rtasidagi nisbat quyidagicha ko‘rsatilgan (15-16-rasmlar).



**15-rasm. MP va OPda diskret to‘lqinli almashtirishlar**



**16-rasm. MP va OPda atributli vektor shakllarini rasterlash**

Hisoblash tajribalarida virtual muhitlar o‘quv muhitini tashkil qilinib mashg‘ulot jarayonlari uchun vaqt sarfini kamayishi hisobiga ish unumdorligini 5% ga oshirishga hamda o‘quvchilarni mashg‘ulotga qiziquvchanlik qobiliyatini bir necha barobar oshirishga imkon beradi. Buning natijasida dars mashg‘ulotlariga ketadigan vaqtning 2 barobarga kamaytirishga erishildi.

## Xulosa

Tadqiqotni amalga oshirishdan olingan asosiy natijalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini shakllantirish uchun mazkur sohada ta'lim jarayonida foydalaniladigan virtual universitet muhitlari, ularning imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari virtual muhitning asosiy tushunchalari, virtual ta'lim tizimlarini qo'llash usullarining hozirgi holati va ularni qo'llanilishi tahlil qilinib 3D universitet umumiy milliy strukturasi ishlab chiqish yuzasidan yetarlicha ilmiy tadqiqotlar ishlari tahlil qilindi.

2. Foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish, ma'lumotlar, xizmatlar, servislar tizim ma'lumotlari to'plami bo'lgan axborot resursi uchun vacademia.uz veb-interfeys yaratildi.

3. Mavjud VR muhiti uchun uch o'lchovli obyektlarni virtual olam muhiti qabul qiladigan 3D modellarning fayl formatlari o'rganildi va tegishli dasturiy instrumentini qo'llash taklif etilgan. vacademia.uz muhitiga grafik ma'lumotlar bazasining virtual olam muhitida kurslarga qatnashish ER diagrammasi keltirib o'tildi.

4. Foydalanuvchilarni veb-interfeysda ma'lumotlarni shakllantirish vizual jarayonlarni funksional modellashtirish va virtual muhitga klient dasturiy vositasi orqali o'tish IDEF0 informatsion modeli, virtual muhitga milliy dizaynga asoslangan lokatsiya ishlab chiqishning IDEF1x axborot modeli keltirib o'tildi.

5. Virtual 3D olam muhitida katta hajmdagi grafik kontent obyektlari munosabati aniqlash uchun oqim protsessor (OP)lar va markaziy protsessor (MP)larga doimiy ravishda virtual muhitga yordamchi vazifalarini yuklab tekshirib ko'rildi. MPlarda 3D grafiklarni qayta ishlashning matematik apparati faqat tasvirlarni qayta ishlashga e'tibor qaratish uchun soddalashtirildi. Sohani shakllantirishda, MP arxitekturasining o'ziga xos xususiyatlari va apparat cheklovlarini inobatga olgan holda MPda tasvirni qayta ishlashning diskret tenglamalar tizimi ko'rinishdagi matematik modelini olindi.

6. Virtual muhitni tashkil qilishda ma'lumotlar bazasi bo'yicha munosabatlarining relyatsion algebra ifodalarini qurish usullaridan foydalanildi va klient dasturiy vosita ishlab chiqildi.

7. Ishlab chiqilgan matematik modellar, algoritmlar va dasturiy vositalar «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi», «UCHDAVR», Rossiya Federatsiyasining «Виртуальные пространства» mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda joriy qilingan. Natijada xalqaro darajadagi virtual ko'rgazmalar o'tkazishda qulay va samaralidir, virtual muhitdagi foydalanuvchilarni mashg'ulotga qiziquvchanlik qobiliyatini oshirishga imkon bergan, ish unumdorligini 10-13% ga oshirishga hamda uch o'lchovli obyektini fazoda tasvirlash tezligi 4 martagacha oshirish imkonini bergan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ**

**ГИЁСОВ УЛУГБЕК ЭШПУЛАТОВИЧ**

**СОЗДАНИЕ 3D МОДЕЛЕЙ И РАЗРАБОТКА ПРОГРАММНОГО  
ИНСТРУМЕНТА ДЛЯ СОЗДАНИЯ ВИРТУАЛЬНОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

05.01.04 – Математическое и программное обеспечение вычислительных машин,  
комплексов и компьютерных сетей

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2022.3.PhD/T3082.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Нуралиев Фахриддин Муродиллаевич  
доктор технических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Кабулов Анвар Василевич  
доктор технических наук, профессор  
Самандаров Батирбек Сатимович  
доктора философии (PhD) технических наук, доцент

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится «17» марта 2023 г. в 14:00 часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43, e-mail: [iktuit@tuit.uz](mailto:iktuit@tuit.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 269). Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70.

Автореферат диссертации разослан «01» марта 2023 г.  
(протокол рассылки № 7 «10» февраля 2023 г.).



**М.М.Мусаев**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Н.О. Рахимов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, доцент

**Х.Н.Зайнидинов**  
Председатель научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире одним из важных вопросов является инновационно-техническая интеграция развивающихся технологий виртуальной реальности и сред с разными сферами общества, в частности применения в области искусства, медицины, туризма, военной сферы, кино и телевидения, а также образования. В этом плане, большое внимание уделяется повышению познавательной деятельности обучающихся в данных областях, более широкому использованию 3D технологий и среды виртуальной реальности, разработке методов и средств перехода от традиционной среды обучения к виртуальной среде 3D обучения. В странах, где развита эта отрасль, в частности, в Норвегии, США, Германии, Японии, Южной Кореи, Российской Федерации, Китае и других странах большое внимание уделяется решению вопросов разработки платформ трехмерного виртуального университета, трехмерных моделей организации виртуального университета, программных средств и визуализации моделей экстерьера виртуальных трехмерных объектов.

В мире в высших образовательных учреждениях, в которых внедрена трехмерная среда виртуального университета, численность виртуальных участников составляет несколько миллионов ежегодно. Причиной этого является тот факт, что дистанционное виртуальное обучение в образовательных учреждениях в отличие от традиционных методов обучения и удобно, и доступно для пользователей, самое главное, позволяет усваивать знания с помощью программного средства единой виртуальной реальности в рамках занятий с виртуальным тренажером и виртуальной симуляцией в удобное для них время. При организации виртуальной среды, технологий и инструментальных средств применения элементов виртуальной реальности (VR) в сфере образования, которые отвечают требованиям современной системы образования важной задачей является ведение научных исследований по разработке методов построения реляционных алгебраических выражений отношений по базе данных, программных средств трехмерного виртуального университета.

В Республике особое внимание уделяется вопросам внедрения в сферу образования в регионах среды виртуальной реальности, совершенствования цифровых программных средств для представления учебного контента в трехмерном и виртуальном электронном формате, обмена знаниями и опытом, разработки национальной виртуальной среды высших образовательных учреждений. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» определены такие задачи как «... изучение и применение на практике возможностей использования в отраслях экономики технологий виртуальной и дополненной реальности, искусственного интеллекта, криптографии, машинного обучения, анализа больших данных и облачного вычисления», «... внедрение и развитие в сфере информационных технологий дистанционного, онлайн и виртуального

обучения, разработка платформ для онлайн курсов», «...развитие и стимулирование научно-исследовательских работы в сфере цифровых технологий, совершенствование их организационных механизмов». В соответствии с этим, в настоящее время с бурным развитием техники и технологий использование виртуальной реальности вызывает у многих большой интерес. Из-за пандемии повысился, спрос на обучение с применением средств ВР в образовательных целях во внеаудиторных условиях и одной из важных задач стала, разработка программных средств, автоматизирующих виртуальную среду такого типа.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в частности «... разработка эффективных механизмов стимулирования и поддержки системы создания национальных продуктов в сфере ИКТ», от 29 октября 2020 года №УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 апреля 2021 года №172 «О мерах по реализации проекта «Модернизация национальной инновационной системы Узбекистана» с участием Международной ассоциации развития» и другими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сферы.

**Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан: IV. «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

**Степень изученности проблемы.** Вопросы использования виртуальных электронных ресурсов в виртуальном мире, роли, значения, уровня оптимальности материалов в виртуальном электронном формате на основе 3D-технологий в образовательном процессе применения в системе образования элементов виртуальной реальности, систем применения ВР в образовании (Second Life, vAcademia, Virbela и др.), разработки виртуальных сред и их внедрения в практику нашли свое отражение в научных работах таких зарубежных ученых как С. Хале, Р.Зиатдинов, М. Фоминйкх, М.ЛаВалле, Ф. Рамос, Ж. Сеокхее, Г. Хенке, И.Т. Шеико, Бин Чен, С.Леви, Д.Эн, М. Мелзер, О.Ёшихиро, Ж. Роберт, М.Морозов, А.Герасимов, П.Форланд, А.В. Меженин и др.

